

“EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK OMIL TUSHUNCHASI “*Azamova Sitora Ayonovna**Shahrisabz davlat pedagogika**instituti o'qituvchisi**Pirimov Lerik Xudoyberdi o'g'li**Shahrisabz davlat pedagogika**instituti talabasi*

Annotatsiya: Maqolada asosiy e'tibor ekologik madaniyat haqida gap boradi. Hozirgi kunda insonlar tomonidan tabiatga ziyon yetkazilib ekologik turg'unlik yuzaga kelmoqda. Ekologiyaning buzilib ketishi insonga turli xil xavf-xatarlarni keltirib chiqarmoqda. Ekologiyaning keskin o'zgarishi turli muommolarni natijasida ekologiyaning keskin buzilib ketishiga olib kelmoqda.

Kalit so'zlar: ekologik madaniyat, orol muommosi, XEH tashkiloti, insonlar, atmosfera, ekologik omil.

Kirish: Tabiat bir so'z bilan aytganda o'zining insoniyatga moddiy va ma'naviy ehtiyojini qondirishga birdek yordam beradigan darajada borliqqa ega. Insonning tabiatga ko'rsatayotgan xavf-xatarlari o'zgarishi, jonli va jonsiz komponentlarga kuchli antropogen ta'sir ekologik muammolarni keltirib chiqaradi. Inson o'zining tabiatga ko'rsatayotgan salbiy ta'sirining oqibatlarini sezgach va bilgach, tabiatdan oqilona, rejali, tejab-tergab foydalanish va uni muhofaza qilish zarurligi haqida o'ylay boshladi, va o'ziga tegishli xulosa chiqardi. O'rmonlarning kesilishi, hayvonlarni ovlash, yangi yerlarni o'zlashtirish, konlarni qazish natijasida inson tabiatga bilvosita ta'siri bevosita ta'sirining salbiy oqibatlari sifatida namoyon bo'ladi. Masalan, yangi yerlarning o'zlashtirilishi ham o'simliklar va hayvonlarning qirilishiga olib keladi. Tashlandiq yerlarni, o'rmonlarni tiklash, ko'kalamzorlashtirish, o'simlik va hayvonlarni ko'paytirish insonning tabiatga ijobiy ta'siriga kiradi. Tabiiy muhitning turli chiqindiqlar bilan ifloslanish ko'lam shu qadar kattaki, bu salbiy omil dunyoning qator rayonlarida hatto, insonning biologik jihatdan yashashga ham xavf tug'dirmoqda. Tabiiy muhitning bunday ifloslanishi rivojlangan va ba'zi bir rivojlanayotgan mamlakatlarda „ekologik inqiroz“ tushunchasining paydo bo'lishiga asos bo'ldi. Yana bir narsani aytib o'tishimiz kerak ya'ni Xalqaro ekologik hamkorlik (XEH)ning tuzilganligini inobatga olish zarur. Xalqaro ekologik hamkorlik deyilganda – yer yuzidagi barcha mamlakatlar tomonidan tabiat muhofazasiga doir xalqaro kelishuv-shartnoma, konvensiyalar tuzish, xalqaro ekologik me'yorlarni ishlab chiqish va ularga rioya etilishini hamkorlikda nazorat qilish, umumsayyoraviy va hududiy

ekologik mummolarni birgalikda hal etish, ilmiy tadqiqotlar va turli xalqaro anjumanlar o'tkazish kabi keng ko'lamli chora- tadbirlar kompleksi tushuniladi. XEH quyidagi tamoyillarga asoslangan bo'lishi lozim:

--sayyoramizdagi har bir inson sog'lom ekologik sharoitlarda yashash huquqiga ega ekanligi;

--har bir mamlakat atrof-muhit va tabiiy resurslardan o'z fuqorolari manfaatlarini yo'lida foydalanish huquqiga ega ekanligi;

--bir davlatning ekologik muvaffaqiyati boshqa davlatlar hisobiga bo'lmasligi yoki ularning manfaatlariga zid bo'lishiga yo'l qo'ymaslik;

--har bir davlat hududidagi ishlab chiqarish faoliyati shu davlatdagi va undan tashqaridagi tabiiy muhitga zarar yetkazmasligini ta'minlash;

--ekologik oqibatlarini bashorat qilib bo'lmaydigan har qanday xo'jalik va boshqa turdagi faoliyatlarning amalga oshirilishiga yo'l qo'ymaslik;

--tan olingan xalqaro meyorlar va andozalar asosida atrof-muhit, tabiiy resurslar va ulardagi o'zgarishlar ustidan nazorat o'rnatish;

--atrof-muhit muhofazasi bo'yicha erkin, keng ko'lamli xalqaro ilmiy-texnik axborotlar almashish va tabiatni asraydigan ilg'or texnologiyani joriy etish;

--sayyoramizning biror-bir hududida favqulodda ekologik holat ro'y bergan davlatlar bir-birlariga o'zaro yotdam ko'rsatish;

--atrof-muhit muammolari bilan bog'liq barcha kelishmovchiliklarni tinchlik yo'li bilan hal etish.

Endi ekologik omil haqida ma'lumot berish o'tsak. Ekologik omil atrofda turlicha bo'layotgan o'zgarishlar natijasida kelib chiqadi. Ya'ni muhitning ayrim ekologik omillari har biri birgalikda yashayotgan organizmlarning barchasi uchun yoki har xil turlar uchun turlicha ta'sir etishi mumkin va turlicha ahamiyat kasb etadi. Masalan, tuproqdagi tuzlar miqdori va tarkibi o'simliklarning oziqlanishida muhim ahamiyatga ega bo'lsa, hayvonlar uchun uning ahamiyati uncha katta emas. Yoki qishki kuchli shamollar ochiq havoda yashovchi yirik hayvonlarga salbiy ta'sir ko'rsatsa, inida yoki qor ostida yashovchi kichik hayvonlarga deyarli ta'sir etmaydi va hokazo. Ammo shuni aytish kerakki, ekologik omillarning organizmga ta'sir etish harakteri qanchalik xilma-xil bo'lmasin, ularning barchasi uchun quyidagi bir necha umumiy qonuniyatlarni ko'rsatish mumkin. Yer yuzida organizmlarning o'sishi, ko'payishi, rivojlanishi va tarqalishi asosiy ekologik omillardan biri bo'lmish haroratga, uning issiqlik miqdoriga hamda turli tabiiy zonalarda vaqt bo'yicha o'zgarib turishiga bog'liqdir. Ya'na bir narsani aytib o'tish joizki ekologik tanazzulning kelib chiqishiga asosiy sabab esa iqtisodiy o'sish va jamiyatning iste'molchilik salohiyatining oshganligidir. Yana bir muammo, hanuz jahon hamjamiyati global biosferadan foydalanishning huquqiy maqomini belgilagani yo'q. Insoniyatning umumiy boyligi bo'lgan tabiatdan oqilona foydalanishning yakdil mexanizmi ishlab

chiqilmadi. Agar atrofga boqsangiz dunyo barqaror rivojlanishga teskari ravishda harakat qilmoqda. Inson farovonligini ekologik inqiroz hisobiga oshirish yaqin kelajakda o'zining salbiy oqibatlarini ko'rsatishi aniq. Uning yagona yo'li ekologik iqtisod yoki yashil iqtisodga o'tishdir. Ya'na bir katta muommalardan biri bu Orol va Orolbo'yidagi ekologik ahvolning keskinlashuvi jahon jamoatchiligini tashvishga solmoqda. Orol tangligi eng yirik regional ekologik halokatlardan biri bo'lib, dengiz havzasida yashaydigan 35 millondan ortiq kishi, shu jumladan O'zbekiston aholisining katta qismi ham uning ta'siri ostida yashamoqda. Yaqin o'tmishda dunyodagi eng yirik ko'llardan hisoblanadigan Orol dengizining qurish sathining o'zgarishi tezlik bilan qurib bormoqda. Orol dengizining qurishiga asosiy sabab Amudaryo va Sirdaryo suvlarining sug'orishga ishlatilishi natijasida kamayib ketganligini barchamiz bilamiz oxirgi yillarda Orol global muammoga aylandi. Ta'kidlash joizki, O'zbekiston va markaziy Osiyo mintaqasi mamlakatlari ko'p yillardan buyon ushbu ekologik ofat oqibatlarini bartaraf etish yo'lida samarali ishlarni amalga oshirmoqda. Orol dengizining qurib qolgan qismida kichik suv havzalari yaratish, chang va tuz bo'ronlarini kamaytirish maqsadida delta havzalariga suv yetib borishini ta'minlash, bioxilma-xillik va delta ekotirimini qayta tiklash; Orol dengizining qurib qolgan qismida juda muhim bo'lgan o'rmonzorlar barpo etish, qum ko'chishini to'xtatish, dengizning qaqrab yotgan tubidan zaharli moddalar ko'tarilishini kamaytirish, kommunal xizmat va davolash muassasalarini ichimlik suvi bilan taminlash va suvni zararsizlantiruvchi qurilmalar bilan qayta jihozlash hamda aholining sog'lig'ini saqlashga xizmat qiladigan boshqa ko'plab tadbirlarni bajarish; Orolbo'yi hududida ko'lami tobora kengayib borayotgan ekologik tanazzulning aholi salomatligi va farzandlarimiz, kelgusi avlodlarimiz genofondiga tasirini tizimli asosda o'rganish, ushbu mintaqaga xos har xil havfli kasalliklar odamlar orasida keng tarqalishining oldini olish va bundan ogohlantirish, bu yerda yashayotgan aholi uchun ixtisoslashgan profilaktika va davolash muassasalari tarmog'ini kengaytirish, ijtimoiy infratuzilmalar jadal rivojlantirishga doir chora tadbirlar dasturini amalga oshirish. Yana bir narsani aytib o'tish joizki Orol dengizi haqida bir qancha professor darajasidagi shaxslar o'zlarining fikrlarini ilmiy asosda ta'kidlab o'tgan: Orol dengizini qutqarishda (uning chiroyli o'limi haqida kaltabin, nodon odamlargina gapirishi mumkin, tabiat farzandini yo'q qilish hech kimga berilmagan) tadbirlarning uch gruppasini ajratib ko'rsatish mumkinki, ularni ma'lum izchilikka –bosqichma- bosqich amalga oshirish lozim. Birinchi bosqichga dengiz sathini ma'lum chiziqda, ilmiy asoslangan ekologik minimallikdan kam bo'lmagan darajada, ososan daryolardan noo'rin olinayotgan suvlarni qaytarish evaziga barqaror qilish kiradi. Ikkinchi bosqich – mavjud melioratsiya tizimlarini rekonsruksiyalash jaroyonida suv rezervlarini aniqlash va ularning ayrimlari samaradorligini tanqidiy baholashdan iborat. Bu yerda ikki guruh tadbirlar ko'zda tutiladi.

Birinchi, suvdan foydalanishning ilg'or texnika va texnologiyasini joriy etish asosida suv boyliklaridan samarali foydalanish koeffitsientini oshirish lozim. Kommunal xo'jalikda va sanoatda suvdan foydalanish sohasida bu tadbirlarning mazmuni ma'lum va amalga oshirsa bo'ladi. U olinayotgan suvning mutlaq hajmini oshirmagan bu sohalarni rivojlantirish imkonini beradi.

Ikkinchi, ayrim sug'orish tarmoqlarining ish samaradorligini yaxshilab tekshirib ko'rish kerak. Sirdaryo va Amudaryoning quyi qismida sholikorlik va paxtachilik uchun mo'ljallangan sug'orish tizimini saqlash maqsadida muvofiq emasligi haqida yuqorida aytib o'tdik. Shunday qilib Orol dengizi havzasida suv boyliklaridan omilkorlik bilan foydalanishning ikkinchi bosqichidagi tadbirlarning amalga oshirilishi yiliga yana 10km dan ko'proq suvni tejash imkonini beradi. Uning Orolga etkazilishi, birinchi bosqichdagi tadbirlar bilan qo'shganda dengiz sathini 40 metrda tutib turish yoki bu yerda sug'oriladigan maydonlar hajmini bir necha million gektarga kengaytirish imkonini beradi.

Uchinchi bosqich olis istiqbolga mo'ljallangan

Mamlakatda suv boyliklarini keng miqyosda territorial qayta taqsimlash va shuning hisobiga Orol dengizi havzasiga shuncha miqdordagi daryo suvini olib kelishi kerakki, toki istiqboldagi barcha suv xo'jaligi muammolarini, jumladan Orolni tiklash masalasini ham hal etish mumkin bo'lsin.

Shunday qilib, orolni qutqarishva uni tiklashga qaratilgan chora- tadbirlarni amalga oshirishda faqatgina ichki mahalliy imkoniyatlarni ishga solibgina qolmasdan, balki xalqaro hamkorlik, dunyo hamjamiyatini e'tiborini qaratish muhim hisoblanadi. Yana bir muhim ishlardan biri davlatimiz rahbari tomonidan amalga oshirilayotgan ishlarning ko'lami sifatida Orol dengiziga olib borilayotgan ishlarni aytsak bo'ladi. O'zbekiston Respublikasida "2017-2021 yillarda maishiy chiqindilar bilan bog'liq ishlarni amalga oshirish tizimini tubdan takomillashtirish va rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risidagi" gi qarori bilan hududlarda sanitar-tozalash xizmatini ko'rsatish sifatini yanada yaxshilash maqsadida tasdiqlangan dastur doirasida chiqindi poligonlarni tartibga keltirish, assenizator maxsus texnikasi, chiqindini elovchi elektro-mexanik uskunalar harid qilish, chiqindi yig'ish shoxobchalari qurish va ularni konteynerlar bilan jihozlash nazarda tutilgan. Hisobot davrida ushbu maqsadlarni amalga oshirish uchun 91,9 milliard so'm mablag' ajratilgan 2018-yilda ham Orol muammosi bilan bog'liq bir qator loyihalar ishlab chiqilib amalga oshirilib kelinmoqda. Bularning barchasi asta-sekinlik bilan o'z samarasini bermoqda agar o'z holatiga tashlab qo'ysak juda ayanchli oqibatlariga olib kelishi kundek ravshan Shu maqsada davlatimiz rahbari tomonida bir qancha ushlar amalga oshirilmoqda. Davlatimiz rabbari 2018-yil Mo'ynoqqa tashrif buyurdi. O'shanda olimlar bilan maslahatlashildi. Orol dengizining suvi qurigan kengliklarida sho'rga chidamli o'simliklar ekish vazifasi belgilagandi. Buni xayrli ishning start olgan yili deyish

mumkin. Bugungacha suvsiz, Orolqum deb atala boshlangan 1 million 700 ming gektar maydonda o'rmonlashtirish va ko'kalamzorlashtirish ishlari olib borildi.

Ekologik madaniyat deymizu lekin ko'pgina holatlarda unga zarar yetkazib qo'yganimizni gohida bilib gohida bilmasdan harakat qilamiz, ekologik madaniyatni biz bog'chadan boshlab bolalar ongiga yetkazib tushuntirib borsak kelajakda tabiatga zarar yetkazishga urinishmaydi. Ayrim holatlarda ko'ramizki tabiat bizga shafqatsiz munosabatda bo'ladi ya'ni chang-tuzonlari, suv-toshqinlari bularning barchasi ekologik madaniyatning shakillanmaganidan va e'tiborsizlik natijasida paydo bo'lmoqda. Taklif o'rnida bir narsani aytib o'tishim kerakki, daraxtlar kesilishini oldini olish va kamroq ekologiya zarar yetkazuvchi korxonalaridan asta-sekinlik bilan voz kechishni yagona yechimi sifatida dolzarb ahamiyat kasb etmoqda.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yhati

1. Ijtimoiy Ekologiya <<Book Trade 2022>> Toshkent-2022.102-betlar
2. Ekologiya Toshkent "NIF MSH" 2020. 25-87- betlar.
3. EKOLOGIYA VA TABIATNI MUHOFAZA QILISH << O'zbekiston xalqaro islom akademiyasi>> nashryot-matbaa birlashmasi Toshkent-2020 115-147-betlar.
4. Ayonovna A. S. A. A. S. YOSHLARDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHDA EKOLOGIK TARBIYANING SAMARALI YO'LLARI VA BOSQICHLARI //Scientific journal of the Fergana State University. – 2023. – №. 6. – C. 136-136.
5. Ayonovna A. S. The Need for the Formation of Environmental Education and Upbringing in Young People in the Conditions of Environmental Globalization //Global Scientific Review. – 2023. – T. 13. – C. 7-10.
6. Azamova S. EKOLOGIK TA'LIM VA TARBIYANING RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2024. – T. 1. – №. 1.
7. Azamova S. UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHILARIDA EKOLOGIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISHNING USUL VA VOSITALARI //Interpretation and researches. – 2024.
8. Azamova S. EKOLOGIK GLOBALLASHUV SHAROITIDA O'ZBEKISTON TA'LIM MUASSASALARIDA EKOLOGIK MADANIYATNING SHAKLLANISHI VA RIVOJLANISH BOSQICHLARI //Universal xalqaro ilmiy jurnal. – 2024. – T. 1. – №. 4. – C. 286-289.
9. Omonov B. N., Ochilova G. A., Azamova S. A. SPECIFIC CHARACTERISTICS OF THE ECOLOGICAL ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN //World of Scientific news in Science. – 2023. – T. 1. – №. 3. – C. 15-28.